

ZAMONAVIY OILALAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOIIY ISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maxsudov Hayitboy

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila tushunchasining mohiyati, uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Oila inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institut sifatida qaralib, unda shaxsning shakllanishi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishi asosiy o‘rin tutishi yoritilgan. Shuningdek, maqolada oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida insonning ijtimoiylashuvi, tarbiyasi va farovonligini ta’minlashdagi roli keng ochib berilgan. Maqolada ijtimoiy ishning mazmun-mohiyati, uning asosiy vazifalari hamda ijtimoiy xodimlarning oilalar bilan ishlashdagi kasbiy faoliyati atroflicha bayon etilgan. Ijtimoiy xodimlarning mijozlarga nisbatan mas’uliyati, ularning huquqlarini himoya qilish, ishonchli munosabat o‘rnatish, maxfiylikka amal qilish, tenglik va adolat tamoyillariga rioya etish kabi muhim jihatlar alohida ta’kidlangan. Shu bilan birga, ijtimoiy xodimlar faoliyatida insonparvarlik, bag‘rikenglik va professionallik asosiy mezon sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, maqolada oilalar bilan ishlashning asosiy tamoyillari va metodlari tizimli ravishda yoritilgan. Xususan, individual (yakka tartibda) ishlash, guruhli ish usuli, tizimli yondashuv, oilaviy terapiya, psixologik maslahat berish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda profilaktika va targ‘ibot ishlari kabi zamonaviy yondashuvlar keng tahlil qilingan. Maqola oilalar bilan ishlashning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tarzda yoritib, ijtimoiy xodimlar faoliyatini takomillashtirish hamda oilaviy farovonlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: oila, ijtimoiy ish, ijtimoiy xodim, oilalar bilan ishlash, oilalar bilan ishlash usullari, oilalar bilan individual (yakka tartibda) ishlash usuli, oilalar bilan guruhli ish usuli, oilalar bilan tizimli yondashuv usuli, oilaviy terapiya usuli, oilalar uchun psixologik maslahat, oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash usuli, oilalar bilan profilaktika va targ‘ibot ishlari usuli.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the essence of the concept of family, its role, and its significance in society. The family is considered the most important social institution in human life, where the formation of the individual, the development of moral and ethical values, and the strengthening of social relationships play a central role. The article also broadly explains the role of the family as the fundamental unit of society in ensuring socialization, upbringing, and the well-being of individuals. The article thoroughly describes the nature of social work, its main tasks, and the professional activities of social workers in working with families. Particular emphasis is placed on the responsibilities of social workers toward clients, including protecting their rights, establishing trusting relationships, maintaining confidentiality, and adhering to the principles of equality and justice. At the same time, humanism, tolerance, and professionalism are highlighted as key criteria in the activities of social workers. In addition, the article systematically outlines the main principles and methods of working with families. In particular, modern approaches such as individual (one-on-one) work, group work, a systemic approach, family therapy, psychological counseling, social support, as well as preventive and advocacy activities are extensively analyzed. Overall, the article comprehensively covers both the theoretical and practical aspects of working

with families and serves as an important scientific and practical resource aimed at improving the activities of social workers and enhancing family well-being.

Keywords: family, social work, social worker, working with families, methods of working with families, individual (one-on-one) method of working with families, group work method with families, systemic approach method in working with families, family therapy method, psychological counseling for families, social support method for families, prevention and advocacy work method with families.

Аннотация: В данной статье глубоко проанализированы сущность понятия семьи, её роль и значение в обществе. Семья рассматривается как важнейший социальный институт в жизни человека, в котором формирование личности, развитие духовно-нравственных ценностей и укрепление социальных отношений занимают центральное место. Также в статье широко раскрывается роль семьи как основной ячейки общества в обеспечении социализации, воспитания и благополучия человека.

В статье подробно изложены сущность социальной работы, её основные задачи, а также профессиональная деятельность социальных работников при работе с семьями. Особое внимание уделено ответственности социальных работников перед клиентами, защите их прав, установлению доверительных отношений, соблюдению конфиденциальности, а также следованию принципам равенства и справедливости. Наряду с этим, гуманизм, толерантность и профессионализм выделены как основные критерии деятельности социальных работников. Кроме того, в статье системно освещены основные принципы и методы работы с семьями. В частности, подробно проанализированы современные подходы, такие как индивидуальная работа (в индивидуальном порядке), групповая работа, системный подход, семейная терапия, психологическое консультирование, социальная поддержка, а также профилактическая и просветительская деятельность. В целом, статья комплексно освещает теоретические и практические аспекты работы с семьями и представляет собой важный научно-практический источник, направленный на совершенствование деятельности социальных работников и повышение благополучия семьи.

Ключевые слова: семья, социальная работа, социальный работник, работа с семьями, методы работы с семьями, метод индивидуальной (индивидуальной) работы с семьями, метод групповой работы с семьями, метод системного подхода в работе с семьями, метод семейной терапии, психологическое консультирование для семей, метод социальной поддержки семей, метод профилактической и просветительской работы с семьями.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev takidlaganlaridek "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qayerda ishlashingdan, kim bo'lishingdan qat'i nazar, oilada tarbiya, muhit, halollik, mehr-oqibatga e'tibor berilmasa,

hech qachon kerakli natijaga erishilmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor berganman. Farzandimga ham, nevaramga ham alohida munosabatim bor, har birining niyatini, istagini bilaman. Agar oila bilan bo'lsang, o'zingni baxtli deyishga to'liq haqing bor. Faqat oilam emas, xalqim ham baxtli bo'lsa, men o'zimni baxtli his qilaman"¹.

Oila – bu qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan yoki an'anaviy ravishda shakllangan, o'zaro mehr-muhabbat, hurmat va mas'uliyat asosida birlashgan insonlar guruhi. Oila odatda ota-ona va farzandlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'zaro ijtimoiy, ma'naviy, psixologik va moddiy jihatdan bog'langan holda hayot kechirishadi. Oila jamiyatning asosiy birligi hisoblanib, uning vazifalari orasida farzandlarni tarbiyalash, ularning rivojlanishini ta'minlash, oila a'zolarining ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash kabi mas'uliyatlar kiradi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida oila tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan, oila – nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orning birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi².

Oila - bu insonlarning bir-biriga ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy bog'liqligini tashkil etadigan, asosan nikoh yoki qarindoshlik aloqalari orqali bog'langan, birgalikda yashaydigan va o'zaro yordam, qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi guruhdir. Oila insonlarning hayotidagi asosiy va muhim tuzilmalardan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi farzandlarni tarbiyalash, ularni ma'naviy va axloqiy jihatdan shakllantirish, shuningdek, o'zaro ehtiyojlarni qondirish va hayotiy muammolarni hal qilishda yordam berishdir.

XX asr boshlarida Turkiston madaniyati, siyosati va ma'rifatida muhim rol o'ynagan taniqli ziyoli, yozuvchi, shoir, tarjimon, tarixchi va jamoat arbobi Abdurauf Fitrat o'zining "Oila va oila boshqarish tartiblari" asari oila tushunchasini quyidagicha izohlab bergan. "Har bir millatning saodati va izzati albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muntazam bo'ladi"³.

Ijtimoiy ish – bu odamlarga insonlar orasidagi munosabatlarni hal qilish va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarda ko'maklashishga yo'naltirilgan, ularning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kasbiy faoliyatdir.

Ijtimoiy xodim – bu jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish, odamlarning hayot sifatini yaxshilash va ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga yordam beruvchi mutaxassis. Ijtimoiy xodimlar odamlar va guruhlarning ijtimoiy, psixologik, moddiy va

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>

² https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20%200%20harfi.pdf

³ Fitrat, Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas'ul maharrir H. Boltaboyev. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013 — 144 b.

ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatadi. Ular ijtimoiy adolatni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va jamiyatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida faoliyat yuritadi.

Ijtimoiy xodimlar oilalar bilan ishlashdagi quyidagi majburiyatlarini o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy ish mijozlarining qiziqishlariga ko'maklashadi va huquqlarini himoya qiladi;
- mijozlarda ishonch o'rnatish va uni saqlashga intiladi va maxfiylik qoidasiga amal qiladi;
- xizmatdan foydalanuvchi mijozlarning mustaqillikni egallashiga, o'zo'zini aniqlashni rivojlantirishga ko'maklashadi;
- xizmatdan foydalanuvchi mijozlarni xavfdan hamda ularga zarar kelishidan iloji boricha himoya qiladi;
- amaliyotda odamlar orasidagi madaniy, etnik, yosh, gender farqlarini inobatga oladi;
- mijozlarning huquqlarini bilish va hurmat qilish, ijtimoiy ishchining axloqi va ishda foydalanilayotgan yondoshuvlar mijozga zarar keltirmasligiga ishonishi kerak;
- ijtimoiy xizmatlarga jamoatchilik ishonchini qo'llabquvvatlash;
- o'z ishining sifati va o'z bilimlari, malakasini saqlash hamda yaxshilashga mas'ul bo'la oladi;
- millati, yoshi, diniy e'tiqodi, oilaviy maqomi, aqliy yoki jismoniy xususiyatlari, imtiyozlari, shaxsiy tavsifnomalari va boshqalarga asoslangan kamsitishning har qanday shakllarini namoyon etishni rad etadi va to'sqinlik qiladi va boshqalar⁴.

Menimcha, ijtimoiy xodimlarning oilalar bilan ishlashdagi majburiyatlari inson huquqlarini himoya qilish, mijozlarga yordam berish va ularning farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Ular ishonch, maxfiylik, tenglik va adolat tamoyillariga amal qilgan holda, mijozlarning mustaqilligini rivojlantirishga va ularni har qanday xavf hamda kamsitishlarga yul quymaslik.

Oila bilan ijtimoiy ishning umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- bolaning xarakteri va manfaatlarining ustuvorligi, har tomonlama rivojlanishi va uning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilish;
- ota-onalarning huquqlarini hurmat qilish, ijtimoiy xizmatlar tomonidan oiladagi vaziyatni obyektiv va malakali baholash;
- ijtimoiy hodimlar tomonidan bolalarga nisbatan zo'ravonlik xavfi bo'lmaganda, oilalar bilan ishlashda maxfiylikni saqlash;
- kuch va boshqaruvdan oqilona foydalanish;
- oiladagi noqulay omillarni hisobga olish, tavakkalchilikka asoslangan yondashuv va boshqalar. Bunday yordam to'la ota-onalar va ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar oilalari, harbiy xizmatchilar, nogiron bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalar, talabalar oilalari, qochqinlar oilalari, muhojirlar, ishsizlar oilalar va hk.

Ularda ijtimoiy ish kundalik oilaviy muammolarni hal qilish, ijobiy oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirish, ichki resurslarni tiklash, erishilgan ijobiy natijalarni barqarorlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va ijtimoiylashuv potentsialini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

⁴ G'ulom X., Qizi S. G. A. OILA TUSHUNCHASI VA OILADAGI IJTIMOYIY MUNOSABATLAR TIZIMI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 135-140.

Oilalar bilan ishlash bu oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, oila a'zolarining ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta'minlash, shuningdek, oiladagi muammolarni hal qilishga qaratilgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir⁵.

Oilalar bilan ishlash usullari – bu oilaviy muammolarni hal qilish, oila a'zolarining psixologik, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun qo'llaniladigan metodik yondashuvlar va usullardir. Ushbu uslubiy jihatlar oila bilan ishlashda quyidagi usullarni o'z ichiga oladi:

1) Oilalar bilan individual (yakka tartibda) ishlash usuli – bu har bir oilani alohida holat, muammolar va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlash usulidir. Bu usulda oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlari, oilaviy munosabatlari va ularning yashash sharoitlari chuqur o'rganiladi, shuningdek, ularga moslashtirilgan yechimlar va yordam ko'rsatish rejalari ishlab chiqiladi;

2) Oilalar bilan guruhli ish usuli – bu bir nechta oilalarni yoki oila a'zolarini birgalikda ishlashga jalb qilish orqali ularning muammolarini hal qilish, o'zaro munosabatlarni mustahkamlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlash usulidir. Bu usulda oilalar bir-birlari bilan tajriba almashish, yangi bilim va ko'nikmalar olish, shuningdek, umumiy muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Guruhli ish usuli oilalarning ijtimoiy integratsiyasini oshirish, ularning o'zaro hamjihatligini mustahkamlash va psixologik yordam ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi;

3) Oilalar bilan tizimli yondashuv usuli – bu oilani bir butun tizim sifatida qarash va uning har bir a'zosini o'zaro bog'liq element deb hisoblash usulidir. Bu yondashuvda oiladagi har bir a'zoning harakati, xulq-atvori va muammolari butun oila tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Tizimli yondashuv oilaviy munosabatlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda oilani bir butun sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi;

4) Oilaviy terapiya usuli – bu oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, kommunikatsiyasi va oilaviy dinamikasini yaxshilashga qaratilgan psixoterapevtik yondashuvdir. Bu usulda oila bir butun tizim sifatida ko'rib chiqiladi va oiladagi muammolar yechimi uchun barcha a'zolar ishtirok etadi. Oilaviy terapiya oiladagi konfliktlarni bartaraf qilish, munosabatlarni mustahkamlash va oila a'zolarining shaxsiy rivojlanishiga yordam berish maqsadida qo'llaniladi;

5) Oilalar uchun psixologik maslahat – bu oila a'zolarining shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy muammolarini hal qilish, ularning ruhiy salomatligini yaxshilash va oilaviy munosabatlarni mustahkamlash maqsadida beriladigan professional yordamdir. Psixologik maslahat oiladagi konfliktlarni bartaraf qilish, kommunikatsiyani yaxshilash va oila a'zolarining o'zaro hamjihatligini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

6) Oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash usuli – bu oilalarning ijtimoiy, moddiy, ma'naviy va psixologik ehtiyojlarini qondirish, ularning hayot sharoitlarini yaxshilash va muammolarini hal qilishga qaratilgan yordam va xizmatlarni ko'rsatish metodidir. Bu usul oilalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularning farovonligini oshirish va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyasiga yordam berish maqsadida qo'llaniladi;

⁵ N.Latipova, E.Zaitov. Oilalar bilan ijtimoiy ish. O'quv qo'llanma. Toshkent-2023. 284 b.

7) Oilalar bilan profilaktika va targ‘ibot ishlari usuli – bu oilalarni turli ijtimoiy, psixologik, sog‘liqni saqlash va ma‘rifiy muammolardan oldindan himoya qilish, shuningdek, ularni to‘g‘ri ma‘lumotlar va bilimlar bilan ta‘minlash orqali ularning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan faoliyatdir. Bu usul oilalarni muammolarning oldini olish, ularning salomatligini va farovonligini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Oilalar bilan ishlash usullari oilaviy munosabatlarni yaxshilash, muammolarni hal qilish va oila a‘zolarining farovonligini ta‘minlashga qaratilgan. Har bir usul oilaning noyobligi va ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lib, ularning shaxsiy, ijtimoiy va ma‘naviy rivojlanishiga yordam beradi. Oilalar bilan ishlashda individual, guruhli, tizimli yondashuvlar, shuningdek, oilaviy terapiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va profilaktika ishlari muhim rol o‘ynaydi. Bu usullar oilalarning barqarorligini ta‘minlash, ularning hayot sifatini yaxshilash va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyasiga yordam beradi.

Menimcha, oilalar bilan ishlash usullari jamiyat barqarorligi va oilaviy totuvlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir usul — individual yondashuvdan tortib guruhli ish, tizimli yondashuv, oilaviy terapiya va psixologik maslahatgacha oilaning o‘ziga xos muammolarini hal qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda profilaktika va targ‘ibot ishlari oilalarning muammolarini oldini olish va ularning hayot sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa sifatida aytishim mumkinki, maqolada keltirilgan usullar har bir oilaning o‘ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda qo‘llanishi zarurligi ta‘kidlanadi. Umuman olganda, oilalar bilan ishlashning mazkur yondashuvlari nafaqat oilaviy muhitni yaxshilash, balki jamiyat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>
2. https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20O%20harfi.pdf
3. Fitrat, Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas‘ul maharrir H. Boltaboyev. — Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013 — 144 b.
4. G‘ulom X., Qizi S. G. A. OILA TUSHUNCHASI VA OILADAGI IJTIMOYIY MUNOSABATLAR TIZIMI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 135-140.
5. N.Latipova, E.Zaitov. Oilalar bilan ijtimoiy ish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2023. 284 b.